

**BOJXONA ORGANLARIDA MAVJUD TAHLILIY
GURUHLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI
MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI MUQOBIL YECHIMLARI**

Axmatqulov Rasuljon

Bojxona instituti 4-kurs kursanti

E-mail: axmatkulovrasuljon@gmail.com

[Tel: +998904910979](tel:+998904910979)

Sohaviy yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni umumiylikdan xususiylikka qarab davrlar kesimida o‘rganib borish, axborot-tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish, muammo, xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish maqsadida Bojxona qo‘mitasining ayrim tarkibiy tuzilmalari tarkibida tahlil guruhlarini tashkil etilgan.

Xususan, **Targetlash va xavflarni monitoring qilish boshqarmasi**

(5 ta xodim) tarkibida xavfni baholash, uni kamaytirishga qaratilgan choralar va ularni qo‘llash natijalarini tahlil va nazorat qilish, XBTning samaradorligini tahlil qilib, uni baholashga qaratilgan maxsus mezonlar ishlab chiqish yuzasidan tahliliy ma’lumotnomalar tayyorlash, xavflarni boshqarish mexanizmi samaradorligini baholab, uni takomillashtirish choralari ko‘rish, bojxona nazorati shakllarini qo‘llash natijalarini tahlil qilib, samaradorligini monitoring qilib borish maqsadida tashkil etilgan.

Bundan tashqari, **Tashqi savdo bojxona statistikasi boshqarmasi**

(10 ta xodim) tarkibida ham tahlil guruhi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu guruhning asosiy vazifasi O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdosini rivojlantirish tendensiyalari, shuningdek, mamlakatning savdo hamkorlari bo‘lgan davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar tayyorlash, tashqi savdo bojxona statistikasi yuritish natijalari tahlilidan kelib chiqqan holda xavf profillarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda amaliyotga joriy etishda ishtirok etish, tashqi savdo bojxona statistikasi tahlili natijasida aniqlangan kamchiliklar va huquqbuzarliklar belgilari to‘g‘risida Bojxona qo‘mitasi rahbariyatiga ma’lumotlar kiritib borishdan iborat ekanligi belgilangan.

Shuningdek, «yashirin iqtisodiyot»ning vujudga kelish omillarini tahlil qilish, «yashirin iqtisodiyot» ulushi yuqori bo‘lgan soha va yo‘nalishlarni aniqlash hamda ulami qisqartirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, davlat chegarasida, mamlakat ichki hududida, qo‘shni davlatlar hamda boshqa xorijiy mamlakatlarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy vaziyatlar bo‘yicha ma’lumotlar olish,

umumlashtirish, tahlil qilish va istiqbolni belgilash, hamda tarkibiy tuzilmalarning ma'muriy huquq buzarliliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish amaliyotini tahlil qilish, umumlashtirish hamda yagona amaliyotini shakllantirib borish maqsadida **Kontrabandaga qarshi kurashish boshqarmasi (6 ta xodim), Surishtiruv va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (4 ta xodim)** hamda **Shaxsiy xavfsizlik boshqarmalarida (3 ta xodim)** ham tahlil guruhlarini tashkil etilib, tahliliy faoliyat yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga, bojxona organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish, faoliyatini takomillashtirish, Bojxona qo'mitasining muayyan davrga mo'ljallangan ish rejalarini ishlab chiqish, xizmat faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish va baholash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, Bojxona qo'mitasi rahbariyati tomonidan nazoratga olingan va ijro uchun Bojxona qo'mitasi tarkibiy tuzilmalariga berilgan topshiriqlarning belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi va hal qilishi ustidan nazorat hamda tahlil ishlarini olib borish maqsadida **Tashkiliy-nazorat, xizmat faoliyatini tahlil qilish va baholash boshqarmasi**

(8 ta xodim) tarkibida ham tahlil guruhi tashkil etilgan.

Hozirgi kunga kelib, bojxona sohasida tahliliy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun axborot maydoni hajmi juda keng. Unga bojxona tartibotini qo'llash masalalari, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi hamkorlik, huquqiy va boshqaruv sohasidagi muommolar keltirib o'tish mumkin.

Bojxona qo'mitasi tarkibiy tuzilmalari tarkibida tashkil etilgan tahlil guruhlarini o'zlariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib tahliliy ishlarni olib borganliklari sababli bojxona organlari faoliyati, undagi muammolar va ularning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha kompleks tahlil qilish imkoniyati mavjud emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirda bojxona organlarida axborot-tahliliy faoliyat bilan bog'liq mavjud muammolarni 3 guruhga ajratish mumkin:

1-guruhga tashkiliy-tuzilmaviy muammolar kiradi.

Hozirda tarkibiy tuzilmalar tomonidan axborot-tahliliy faoliyat alohida-alohida amalga oshirib kelinayotganligi, shuningdek rahbariyat topshirig'i asosida tuzilayotgan ishchi guruhlar tomonidan tahliliy ma'lumotlar turli yo'nalishlarda tayyorlab berilayotganligiga qaramasdan tahliliy ishlarni muvofiqlashtiruvchi tahlil guruhi mavjud emas.

Shuningdek, bojxona organlarida axborot-tahliliy faoliyatni samarali tashkil etishda kadrlar bilan bo'g'liq muammolarni bartaraf etish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tarkibiy tuzilmalar qoshida tashkil etilgan tahlil guruhlarini tarkibida axborot-tahliliy faoliyat bilan professional shug'ullanadigan xodimlar juda kam. Ayrim boshqarmalarda tahlil guruhlariga axborot-tahliliy faoliyat bilan shug'ullanmagan xodimlar jalb etilgan.

Ma'lumot uchun, tahlilchilarni tayyorlash bilan respublikada faqatgina O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi shug'ullanadi. Boshqa oliy o'quv yurtlari qoshida ham axborot-tahlil yo'nalishida o'quv kurslari tashkil etilgan bo'lib, ularda Oliy maktab kabi aynan tahlilchilik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yilmagan.

Bojxona organlarida tahliliy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Xususan, hozirga qadar 150 nafarga yaqin bojxona xodimlari Oliy maktab magistraturasini tamomlagan bo'lsada ularning aksariyati xizmat faoliyatini axborot-tahliliy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan ish o'rinlarida olib borishmoqda.

Sohaning tor ekanligini hisobga olgan holda, bojxona sohasiga doir ma'lumotlar bilan ishlash va uning kelgusi tendensiyalari bo'yicha prognozlar ishlab chiqish qobiliyatiga ega kadrlarni tayyorlashga ehtiyoj mavjud.

2-guruhga tashkiliy-huquqiy muommolar kiradi.

2024-yil 19-fevralda Bojxona Qo'mitasining **"Bojxona organlari faoliyatida tahlillar bilan ishlash samaradorligini oshirish to'g'risida" 35-sonli buyrug'i** bilan axborot-tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash sifatini oshirishda tahlillarni yo'nalishlar va belgilangan davrlar bo'yicha sifatli hamda asoslantirilgan holda tayyorlash, tahlillarni **"miqdoriy ko'rsatkichdan, sifat ko'rsatkichiga o'tish"** tamoyili asosida oylik, choraklik va yillik amalga oshirish, axborot-tahliliy ma'lumotlarga umumiy, tavsiyaviy, takroriy, haqiqatdan yiroq va noaniq ma'lumotlar kiritilishini cheklash, tahlillarni oldingi (davr) tahlil natijalari bilan qiyoslash, tahlillar jarayonida qonunchilik hamda ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar, bo'shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishda normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish, tahlillar natijasida aniqlangan muammo, xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarning amalga ijrosi ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratish kerakligi takidlab o'tildi.

Lekin, ushbu buyruq bilan tahlil yo'nalishlari, ularni amalga oshirish vaqtlari hamda tahliliy ishlanmalarga ma'sul shaxslar belgilangan bo'lsada axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshirishda, tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlashda tahlil uslublardan yo'nalishlarga muvofiq foydalanishni belgilovchi aniq bir **Nizom** ishlab chiqilmagan.

Natijada, turli tarkibiy tuzilmalar tomonidan amalga oshirilayotgan aniq bir yo'nalishdagi tahliliy ma'lumotlarda tafovudlar mavjud. Bu esa o'z navbatida tahliliy ma'lumotlarga bo'lgan ishonchni kamaytiradi.

Bundan tashqari, bojxona organlarida axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshirishdagi yagona Nizomning mavjud emasligi umumiy ish hajmini bo'lib tahlil qilishda qaysi tarkibiy tuzilma natijadorligini aniqlash imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Shuningdek, sohadagi mavjud muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda tarkibiy tuzilmalar negizidagi tahlil guruhlar tomonidan tayyorlanayotgan tahliliy hujjatlar aniq davr uchun mo'ljallanmagan. Ya'ni tahliliy ma'lumotnomalar yaqin kelajak, o'rta kelajak yoki uzoq kelajak uchun mo'ljallab tayyorlanmayapti.

3-guruhga mavjud kuch va vositalardan foydalanish bilan bog'liq muammolarni keltirib o'tish mumkin.

Shuni aytib o'tish joizki, hozirgi kunga kelib bojxona organlari tizimida deyarli barcha jarayonlar raqamlashtirilgan tarzda olib borilmoqda. Hozirda tizimda 35 ta yagona axborotlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish samarali yo'lga qo'yilgan. Shu jihatdan, tahliliy ma'lumotlar tayyorlash sohasi juda keng va axborot hajmi katta bo'lishiga qaramasdan bojxona organlari tizimida axborot erkinligining cheklanganligi tufayli axborot-tahliliy faoliyatning asosiy tamoyili bo'lgan mavjud manbalardan samarali foydalanishda muammolar mavjud.

Xususan, 2024-yil 1-yanvardagi Bojxona qo'mitasining 1-sonli buyrug'i bilan ishga tushirilgan "Bojxona qununchiligi buzilishi" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi ma'lumotlar bilan ishlashda hududlardagi bojxona boshqarmalari inspektor xodimlari imkoniyatlari cheklangan. Ya'ni ularda respublika miqyosidagi ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati mavjud emas. Faqat bo'lim boshliqlari bunday ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Buni ham qaysidur ma'noda axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar sirasiga kiritish mumkin. Ya'ni tahlilchi uchun manbalar qanchalik keng bo'lsa va undan foydalanish imkoniyati oson bo'lsa olingan ma'lumotlarni jiddiy ravishda tekshirish, manbadagi fakt va ma'lumotlar qay darajada bir-birini tasdiqlashi yoki inkor etishini aniqlab olish shunchalik yengil kechadi. Ko'p manbalardan foydalanish negizida tayyorlangan tahliliy hujjat yanada kengroq asosga ega bo'ladi, ko'rilayotgan masalalar chuqur yoritiladi va jiddiy xatoga yo'l qo'yish darajasining bir qadar pasayishiga erishiladi.

Bundan tashqari xizmat faoliyati kelib chiqib, tahlil guruhlar tomonidan tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar bitta kontekstga yig'ilmagan. Tayyorlangan barcha tahliliy hujjatlarni bir joyda jamlanishi turli tarkibiy tuzilmalar tomonidan aynan bitta muammo bilan ishlashni oldini olish bilan bir qatorda bojxona organlari tarkibiy tuzilmalarida mavjud tahlil guruhlar faoliyati samaradorligini aniqlash imkonini ham beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Bojxona qo‘mitasi turli tarkibiy tuzilmalari tomonidan tayyorlangan tahliliy ma’lumotnomalarni muvofiqlashtirib turuvchi ishchi guruhni tashkil etish.

2. 2024-yil 19-fevralda qabul qilingan Bojxona qo‘mitasining “Bojxona organlari faoliyatida tahlillar bilan ishlash samaradorligini oshirish to‘g‘risida” 35-sonli buyrug‘iga qo‘shimcha ravishda axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshirishda va tahliliy ma’lumotnomalar tayyorlashda tahlil uslublaridan yo‘nalishlarga muvofiq foydalanishni belgilovchi Nizom ishlab chiqish.

3. Axborot-tahliliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xodimlar malakasini oshirish, ularda tahliliy faoliyatga bog‘liq turli zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi bilan hamkorlikda turli xil kurslar va treninglar tashkil etish.

4. Bojxona organlari yogana avtomatlashtirilgan axborot dasturlaridan respublika miqyosidagi ma’lumotlarni olishda tahlil guruhlarini inspektor xodimlariga foydalanish huquqini berish.

5. Tarkibiy tuzilmalar tomonidan tayyorlangan tahliliy ma’lumotlarni jamlash va hisobini yuritish uchun “Tahliliy materiallar” axborot dasturi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet ma’lumotlari: <https://customs.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi “Bojxona tartib taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6310 sonli Farmoni
3. “Bojxona organlarida axborot-tahliliy faoliyatning ahamiyati” S.Rahimov, Jamiyat va innovatsiyalar jurnali, 2022